

## **“NAVOIY” ROMANIDA YASHAYOTGAN NAVOIY**

**O'lmasova Shirin Shavkat qizi**

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent Olim Usmonov

**Annontatsiya:** Ushbu maqolada Oybekning “Navoiy” romani haqida fikr yuritiladi. Roman yozilish tarixi va undagi yutuqlar, romandagi Navoiy obrazi va uning xislatlari yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Oybekning “Navoiy” romani, Alisher Navoiy, to‘qima obrazlar, tarixiy obrazlar, Jomiy va Navoiy, millatsevar shoir, umrboqiy asar.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роман Ойбека «Навои». Освещается история написания романа и его достижения, образ Навои в романе и его качества.

**Ключевые слова:** Роман Ойбека «Навои», Алишер Навои, текстовые образы, исторические образы, Джами и Навои, поэт-националист, дело всей жизни.

**Annontetion:** This article discusses Oybek's novel Navoi. The history of writing the novel and its achievements, the image of Navoi in the novel and his qualities are covered.

**Keywords:** Oybek's novel "Navoi", Alisher Navoi, textile images, historical images, Jami and Navoi, nationalist poet, lifelong work.

Badiiy adabiyot, badiiy asar shunday ne'matki, ularda asrlarosha mo'jizalar saqlanadi, ne-ne ko'ksi ishqqa, zaboni ilmi ash'orga to'la qahramonlar har dam barhayot bo'lishadi. Davrlar o'tadiki, har biri o'zidan bir daho yaratib uning ilmini, ijodini kelajak avlodga meros qilib qoldiradi. Yurtimiz tarixida XIV-XV asrlar alohida o'rinni egallaydi. Ushbu asrlarda Sharqning hozirga qadar iftixori bo'lib kelgan mahobatli inshootlar – me'moriy obidalar bino etildi. Adabiyot, san'at va fan keng taraqqiy etdi. Ana shu taraqqiyotning timsoli va natijasi sifatida Alisher Navoiyning buyuk asarlari yaratildi. Navoiy faqat buyuk shoir bo'libgina qolmay XV asrning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy hayotiga ham katta ta'sir o'tkazdi. Navoiy ijodining jilvasi bizga qadar yetib, ko'ngillarga yorug'lik ulashmoqda. Ustoz Oybek o'zining "Navoiy" romani orqali shunday o'tgan asrlarning dahosi sanalgan Navoiyni bizga tamitmoqchi bo'lgan bo'lsa ajab emas. Ustoz Oybekning asosiy maqsadi Navoiyning ulug' inson, shoir va davlat arbobi sifatidagi obrazini yaratishdir. Oybek Navoiyning insonparvar shoir va davlat arbobi sifatidagi obrazini yaratish uchun asarga tarixiy shaxslar obrazi bilan birga badiiy to'qima obrazlarni ham kiritgan. Bular, birinchi navbatda, Navoiyning shogirdi Sultonmurod, uning do'sti Arslonqul va uning sevgilisi Dildordir. Bular roman voqealaridan oddiy xalq vakillari sifatida ishtirok etib Navoiyning ulug' inson, shoir va davlat arbobi sifatidagi obrazini ochishga ko'maklashadi. Husayn Boyqaro, Jomiy, Behzod, Nizomulmulk, Majididdin singari o'nlab qahramonlar esa Oybek asariga to'ppa-to'g'ri tarix sahifalaridan kirib kelgan. Muallif romanida XV asr hayoti uchun tipik bo'lgan xilma-xil voqe-hodisalar aks ettirgan, rang-barang obrazlar yaratgan. Hayot haqiqati ustalik bilan badiiy haqiqatga aylantirilgan. Bunda yozuvchi obraz yaratishda psixologik tahlildan, til imkoniyatlaridan, jumladan, har bir personajning o'ziga xos fe'l-atvorini va individual tilini berish san'atidan unumli foydalangan. Shunga ko'ra romandagi barcha obrazlar o'z xarakteri va individual tili, e'tibori bilan bir-biridan ajralib, o'zaro farqlanib turadi.

Ma'lumki, badiiy asarda personaj nutqi singari muallif nutqi ham aniq va obrazli bo'lishi, milliy tarovat bilan bezangan, davr ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi shart. Asarda qaysi davr

hayoti tasvirlangan bo'lsa, o'sha davr kishilari nutqidagi til xususiyatlari ham aks etishi kerak. Bu jihatdan «Navoiy» romanining tili ibratlidir. Oybekshunos olim Homil Yoqubov to'g'ri qayd qilganidek: «Navoiy» romani o'zbek tarixiy romanchiligi tilining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Asar tili o'tmish davrning jonli tilini yaratish namunalaridan biri bo'lib qoldi, unda besh yuz yil avval yashagan tarixiy qahramonlarning tili hozirgi kitobxonlarga tushunarli qilib qayta tiriltirildi. Oybek roman tili oldida turgan bu murakkab vazifani to'g'ri hal qildi. Yozuvchining muvaffaqiyati shunda bo'ldiki, u qahramonlar nutqi bilan muallif nutqi o'rtasiga keskin chegara qo'ymadni va tarixiy hamda zamonaviy nutqni bir-biriga uyg'unlashtirdi. U shaxslarning so'zlashuvida Navoiy asridagi adabiy til koloritini saqlash, ayrim grammatik va morfologik formalarni stillashtirish bilan birga, ularni o'zbek adabiy tilining hozirgi taraqqiy bosqichiga xos asosiy qoidalarga bo'ysundirdi, mumkin qadar hozirgi zamon kitobxonining tushunishiga yaqinlashtirdi. Ammo shunisi borki, muallif tilining personajlar tilidan tamoman uzilib qolishi va hozirgi kunning lug'at tarkibidagi yangiliklar bilan boyitilishi mumkin emas edi. Shuning uchun yozuvchi avtor tili bilan personajlar tili o'rtasidagi stilistik birlikni saqlashga harakat qildi, arabcha, tojikcha va hozirgi kunda iste'moldan chiqib ketgan arxaik so'zlarni o'rinni ishlatdi<sup>1</sup>. Bular shundan dalolat beradiki, Navoiy obrazi kitobxon tushunadigan, uning aqli zakosi qabul qiladigan, u sevib ardoqlaydigan darajada yaqinlashtirilgan. Umuman olganda, Navoiy ijod na'munalarini: uning tasavvuf ufurib turgan doston-u, ilohiy ishqni kuylagan g'azallarini anglab yetish, mazasidan totish uchun yetarlicha ilmga ega bo'lish kerak va bu jihatlar oddiy kitobxon bilan Navoiy o'rtasida ma'lum masofa hosil qiladi. Ustoz Oybek esa mana shu masofani bir muncha qisqartirgan, ya'ni Navoiyning barcha xislatlarini oddiy kitobxonga soda tilda yetkazib bera olgan.

Romanda personajlar tili singari muallif nutqi ham katta mahorat bilan ishlangan. Asarda Oybek jonli xalq tili boyliklari: xalq maqollari, hikmatli so'zlar va obrazli iboralardan, shuningdek, o'xshatish, sifatlash, jonlantirish, mubolag'a, majoz kabi tasviriy vositalardan unumli foydalangan. Oybek o'tmish voqeligini aks ettirish, buyuk tarixiy shaxs Alisher Navoiy obrazini yaratish, uning Vatanga va xalqqa bo'lgan cheksiz muhabbatini tasvirlash asosida vatanparvarlik, insonparvarlik, qahramonlik va yomonlikka nafratni targ'ib qildiki, urush davri talablariga to'la mos kelar edi. Navoiy o'z do'stlariga nasihat qilib: «...har nechuk falokatni daf etmoqqa g'ayrat qilmoq kerak... Muborak Vatanning, el-ulusning salomatligi uchun fidokorlik ko'rsatmoq vazifamizdir. Sizdan tilagim shuki, bir-birimizga, davlatga, yurtga vafo, sadoqat, muhabbat bilan bog'lanaylik. Vafo va muhabbat — ulug' qudratdir<sup>2</sup>, — deydi. Shoir va tarjimon A.Naumovning yozishicha, Oybek u bilan suhbatida "Navoiy" romanining yaratilish tarixi haiqda so'zlab, unga: "Yozishdan avval men qahramonlarimni aniq tayin ko'rganman, ular, mening xayolimda, bir paytlar tarix shudgoriga tashlangan urug'dan o'sib chiqqandek edilar", - degan ekan. Adibning bu fikri nafaqat tarixiy shaxslar, balki to'qima obrazlarga ham taalluqlidir. O'sha suhbatdoshning yozishicha, Oybek unga yana bunday so'zlarni aytgan: "Mening stolim ustida o'rtta asrlardagi Hirotning o'zim chizgan xaritasi yotardi. Men Hirotda uyqu og'ushiga ketib, Hirotda uyg'onar edim, faqat kechalarigina men yashayotgan Toshkent tushimga kirardi".<sup>3</sup> Oybekning bu so'zлari uning Homil Yoqubovning Oybek haqidagi har uchala kitobi ham, avvalo, dalillarga boyligi, tahvilning puxtaligi, ilmiy xulosalarga serobligi bilan ajralib turadi. Oybek ijodi misolida zamonaviylik va tarixiylik, an'ana va novatorlik,

<sup>1</sup> Mirzayev S. XX asr o'zbek adabiyoti . T-2004, 54-55-b.

<sup>2</sup> Oybek .Navoiy romani. T-1963

<sup>3</sup> O'zbek tili va adabiyoti jurnali .2005-yil sonlari

konflikt va xarakter, hayotiylik va badiiy to‘qima, shakl va mazmun, lirik, epik va liro-epik janrlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ular orasidagi umumiy va farqli jihatlar to‘g‘risida atroflicha fikr yuritish mukin. Matyoqub Qo‘shtonovning «Oybek mahorati» kitobida adib mahorati ijodiy rivojlanish jarayoni, o‘ziga xos uslub masalalari bilan bog‘liq tarzda tahlil etilgan. Xususan, Oybek asarlaridagi asosiy xarakterlarning shakllanishi sinchkovlik bilan yoritilib, sujet va kompozitsiya, shakl va mazmun munosabati noziklik bilan bog‘lanishini ayтиб o‘tilgan. Albatta, "Navoiy"romani shunday mahoratning yorqin namunasidir. Oybek romanda buyuk shoir obrazini yaratishda Navoiyning turkiy til va adabiyotga bo‘lgan munosabati tasviridan ham o‘rinli foydalangan. Romanda haqqoniy tasvirlanganidek, Navoiy o‘z ona tilisi — turkiyni dil-dildan sevadi. Ammo romanda Alisher Navoiyning boshqa tillarni hech bir kamsitmaganligini to‘g‘ri ta‘kidlaydi. Romanda Navoiy shoir Binoiyga e’tiroz bildirib: «Biz fors tilining qudrat va ahamiyatini, u tildagi asarlaning husn va salobatini hech vaqt inkor etmadik. To go‘daklikdan boshlab fors tilida ham qalam surmoqdamiz. Ammo tilimizning afzalligi biz uchun ulug‘ haqiqatdir. Biz go‘daklikda bu haqiqatning ishqini ko‘nglimizga jo qilganmiz, o‘lganimizcha bu ishqni saqlaymiz! Shaharlarni, qishloqlarni, sahro va tog‘larni to‘ldirgan el-ulusimiz, urug‘-aymog‘imiz bor, uning o‘z zavqi, fahmi-idroki bor. Biz elimizning zavqini, tabiatini nazarda tutib, uning o‘z tilida qalam suraylikki, uning ko‘ngli fikr gullari bilan to‘lsin. Turkona so‘z bilan tarannum etaylikki, elning yuragi mavjga kelsin. So‘z gulshanidan o‘zga ellar qatorida bizning elimiz ham bahramand bo‘lsin»<sup>4</sup>, — deydi. Muallif Jomiy bilan Navoiyni bir-biriga ustoz va shogird ekanini maftun bo‘lib tasvirlaydi. Umr o‘rtasidagi oddiy insoniy munosabatlar ham samimiyat bilan ifodalangan. Navoiy Marvga jo‘nash oldidan xayrlashish niyatida Jomiy huzuriga tashrif buyuradi: «Jomiy unihar vaqtagi singari shavq bilan qarshiladi. Navoiy o‘tirgan hamon ulug‘ chol (Jomjy) muloyim tabassum qilib, o‘ziga xos mayinlik bilan: «Endi ko‘zlarimizni Marv tomonga intizor qilurmisiz?»<sup>5</sup> — dedi.

Bu suhbatdan ikki daho o‘rtasidagi samimiyatni, suhbatdagi noziklig-u, nafosatni sezishimiz mumkin. Oybek mahorat bilan shoirning ijod jarayonini ham ko‘rsata olgan. Navoiyning "Xamsa" ni yozish jarayonidagi mashaqqatlarini, shuningdek, boshqa asarlarini ham qay tarzda dunyo yuzini ko‘rganini tasvirlshga harakat qilgan. Navoiyning dinga bo‘lgan munosabati ham asarda namoyon bo‘ladi. Ulug‘ mutafakkirning hajga borish orzusi asarda shu qadar go‘zal ifoda etilganki, o‘qib hayron bo‘lasan, kishi, ammo bu orzu Navoiy uchun armon bo‘lib qoladi. Undan oldin shoirning Astrabodga hokim etib tayinlanishi uning yor-u do’staridan, ilm ahlidan uzoqlashishiga, Vatan sog‘inchiga sabab bo‘ladi. O‘sha paytlarda Navoiy sog‘inchda o‘rtanadi va quyidagi ruboysi yozadi:

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,  
El anga shafiqu mehrimon bo‘lmas emish,  
Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa  
Bulbulga tikondek oshiyon bo‘lmas emish.

Asarda Oybek Navoiy obraqi orqali chinakam vatanparvarlikni ko‘rsatib bergen. Shuningdek, o‘sha davr Hirot va Hurosonda temuriy shahzoda Husayn Bayqaro zamonida ro‘y bergen adolatsizliklar, ota va bola o‘rtasidagi ziddiyatlar, Mo‘min mirzoning o‘ldirilishi, toju taxt uchun kurashlar, xalq obodonchiligi yo‘lidagi tinimsiz izlanishlar yaqqol tasvir etilgan. Navoiy o‘zinig insoniy fazilatlarni ulug‘lashi, qadriyatlarga sodiqligi, doimo yurt uchun qayg‘organligi tahsinga loyiqidir. Asarda Navoiy obraziga xos xususiyatlar sof dallik, qat`iyat va oliyjanoblik

<sup>4</sup> Oybek .Navoiy romani. T-1963

<sup>5</sup> Oybek .Navoiy romani. T-1963

kabi fazilatlarda namoyon bo‘ladi. Navoiy obrazida biz eng ulug‘ fazilatlarning ko‘ringanini, uning vatanparvarligini, doima xalq manfaatini o‘ylaganini asarning barcha o‘rinlarida ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, uning ona vatan uchun, uning obodonligi yo‘lida qilgan zahmatli mehnatlari tahsinga loyiqidir. Roman yozishga jiddiy tayyorgarlik bilan kirishgani, asar konfliktini tashkil etuvchi kuchlar va bu kuchlarning vakili bo‘lgan shaxslarni aniq-tayin tasavvur etganidan guvohlik beradi.

Xulosa qilib aytganda, «Navoiy» romani o‘zbek romanchiligining ajoyib namunasi va juda katta yutug‘idir. Bu roman jahondagi rus, ingliz, ukrain, nemis, belorus, qozoq, turkman, ozarbayjon, tojik, arab, fors, eston, latish va xitoy tillariga tarjima qilingan va hamma joyda kitobxonlarga manzur bo‘lgan. Navoiy obrazi quyosh misoli ustoz Oybek qalbini yoritgan, muhabbat hadya etgan. Klassik asar namunalaring vazmin yo‘sini kitobxonga o‘zgacha huzur bag‘ishlaydi. Ayniqsa, asar tilining boyligi, ko‘rkamligi, har ikki jumla orasida chiroyli tashbehlarning uchrab turishi zavq bilan birga ilhom beradi. Ustoz Oybek tabiat manzaralari bilan qahramonlar ruhiy holatidagi o‘zgarishlarni mohirona bog‘lay olgan. Asarda uchraydigan har bir o‘xshatish nafislik ipi bilan o‘ralgan. Buni, albatta, bosh qahramon ijodining jozibasi bilan bog‘lasak bo‘ladi. Yozuvchi asarga Navoiyni yetuk kamolot pallasida, hayotning past-u balandini, oq-u qorasini ko‘rib bo‘lgan zamonida olib kiradi, ya’ni Navoiyning bolalik, o‘spirinlik vaqtini emas o‘rta yoshdan og‘gan mahali tasvirlanadi. Bu bilan kitobxon tasavvurida Oybek ulug‘, do‘st-u yor va xalq muhabbatiga sazovor bo‘lgan, ijod ahliga homiy, har ishda adolatli, nozik bir qalb egasini sifatida gavdalantirishni maqsad qilganidandir. Asardan Navoiyning serqirra qobiliyat egasi ekanligini bilishimiz mumkin. Olim Sultonmurod, rassom Kamoliddin Behzod, xattot Sultonali Mashhadiy, tarixchi bobo va nabiralar – Mirxon va Xondamirlar kabi turli nozik ijod yo‘lining sohiblari bilan doimiy aloqada bo‘lishi, ularga ham moddiy, ham ma’naviy rahnamoligi Navoiyning bu sohadagi bilimlaridan darak beradi. Asar qahramonlari Zayniddin va Sultonmurod tilidan: “Alisher inson fikrining barcha sohalarida keng ma’lumot sohibi emish. Tarix, falsafa, mantiqdan boshlab tirandozlikka, musiqiylikqa qadar hech bir sohani qoldirmagan emish”, “Musiqiyyadagi mahorati uchun ijod etgan ba’zi maqomlari dalildir; u musiqiydan xabarsizlikni shoir uchun zo‘r nuqson deb hisoblar emish”<sup>6</sup> kelgan fikrlar ham mubolag‘a emas, insonni hayron qoldirar darajadagi iste’dodning ta’rifidir. Turkiy tilning adabiy til sifatida shakllanishi uchun buyuk jasorat ko‘rsatgan, turkiy tilda bitmas-tuganmas xazina yaratgan ulug‘ insondir. Darhaqiqat , “Navoiy” romani o‘zining badiiy - estetik qimmati, mazmun- mohiyati, badiiy - tasviriy vositalarga limmo-limligi, voqealarning izchilligi, taixiy haqiqatning ko‘zgusi bo‘la olganligi , qahramonlarning bir- biri bilan, ya’ni to‘qima va tarixiy obrazlarning uyg‘unlashganligi bilan ham yuksak tahsin va e`tiroflarga loyiq asardir. Shu bois ham bu asr mana necha yillarki, o‘z qadr- qimmatini yo‘qotgan emas, yo‘qotmaydi ham. Chunki chinakam badiiy san`at asari hech qachon o‘lmaydi. Bunday asarlarni xalq unutmeydi. Oybekning o‘zbek mumtoz adabiyotida yorqin siymo, ulug‘ mutafakkir sanalgan Navoiy obrazini go‘zal tasvirlab bera olgan bu romani Alisher Navoiyning bizga qoldirgan nodir ijod namunalari bilan mangu yashayveradi. Qachonki romanga ko‘z tashlar ekansiz sahifalar qatidan ulug‘vor, halimtabiat shoirning nurli siyoshi sizga mehr bilan boqib turadi.

## **FOYDALANILGANADABIYOTLAR**

- 1.Mirzayev S. XX asr o‘zbek adabiyoti. T-2004
- 2.Umarov H. Adabiyot nazariyasi. T-2004
- 3.Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. T-2002
- 4.Oybek. Navoiy romani. T-1963

<sup>6</sup> Oybek .Navoiy romani. T-1963

5.O‘zbek tili va adabiyoti jurnali. 2005-yil sonlari

6. O‘zbek milliy enseklopediyasi. T-2000, 5-tom.

7. Sodiq S. Yangi o‘zbek adabiyoti. Ma’ruzalar matni, T-1999